

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI
UNIVERSITETI**

“TASDIQLAYMAN”

Rektor _____ Sh.Sirojiddinov

201 8 -yil "25" 08

“KELISHILGAN”

Oliy va o‘rta ma’ruza

Ro‘yxatga olingan

201 8 yil "18" 08



**O‘ZBEK VA JAHON ADABIYOTI
FANI DASTURI**

Bilim sohasi: 100 000 – Gumanitar soha

Ta’lim sohasi: 120 000 – Gumanitar fanlar

Ta’lim yo‘nalishi: 5120900 – O‘zbek -ingliz tarjima nazariyasi
va amaliyoti

Toshkent – 2018

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2018 yil "25" 08 dagi "744"- sonli buyrug'i bilan fan dasturi ro'yxati tasdiqlangan.

Fan dasturi Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi yo'nalishlari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashning 2018 -yil "18" 08 dagi "4"-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Fan dasturi Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

Hamdamov U.A. – Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU Jahon adabiyoti kafedrasini mudiri, filologiya fanlari nomzodi.

Yoqubov I. - ToshDO'TAU, "Adabiyot nazariyasi va hozirgi adabiy jarayon" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari doktori

Mullaxojaeva K.M. - ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi va folklor" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Matyoqubova T.R. - ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi va folklor" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

Quronov D. – Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori

Adizova I. – ToshDO'TAU, "O'zbek adabiyoti tarixi va folklor" kafedrasini dotsenti, filologiya fanlari nomzodi

Dastur Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashida ko'rib chiqilgan va tavsiya qilingan (2018-yil 08 oy dagi "13" - sonli bayonnoma).

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Mazkur fanning o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2016- yil 13-maydagi "Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universitetini tashkil etish to'g'risida"gi PF-4797-son asosida tayyorlangan.

"Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da ta'limning ijtimoiylashuvi bo'limida ko'rsatib o'tilgan talaba-yoshlarning adabiy-estetik dunyoqarashini boyitish, ularda go'zallik tuyg'ularini qaror toptirish adabiyotning tarixiy va nazariy xususiyatlarini jamiyatimizda olib borilayotgan ishlar orqali amalga oshirishga qaratilganligi bilan belgilanadi. Bundan tashqari mamlakatimiz Prezidenti ta'kidlaganidek, "O'zbekiston va uning bag'rikeng xalqi tinchliksevar siyosat yuritish, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat bilan qarash tamoyillarini amalga oshirish pozitsiyasida doimo mustahkam turib kelmoqda". Shu jihatdan, o'z millati adabiyoti bilan bir qatorda jahon adabiyotining sara namunalari o'qib tahlil qila oladigan yetuk adabiyotshunos, tarjimon va murabbiylar yetishtirish zarurdir.

Ushbu fan o'zbek mumtoz va jahon adabiyotining dolzarb muammolari, adabiy-madaniy muhit haqidagi qarashlar va ularga munosabat, tarixiy-adabiy jarayonning taraqqiyot qonuniyatlari va ijtimoiy muhit bilan bog'liqligi, jadidchilik harakatining adabiyotdagi ifodasi o'laroq dunyoga kelgan milliy uyg'onish adabiyoti, XX asr o'zbek va jahon adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari kabi masalalarga doir ma'lumotlarni qamrab oladi.

Ushbu fan dasturi adabiy-estetik qadriyatlarining milliy va umumbashariy jihatlari, o'zbek va jahon adabiyoti tarixini o'rganishning millat hamda jamiyat ravnaqidagi o'rnini talabalarga tushuntirish, ularda badiiy asarni mukammal tushunish, tahlil va tadqiq etish malakasini hosil qilish, jamoatchilikni jahon adabiyotidagi mazmun va shakl, mavzu va g'oyaning mohiyati bilan tanishtirishga ko'maklashish, jamiyatning ma'naviy manzarasini adabiy-nazariy tafakkur orqali aks ettirish, o'zbek va jahon adabiyoti durdonalarini mukammal o'rganish orqali talabalarining badiiy tafakkurini takomillashtirish uchun ko'rsatmalar beradi.

"O'zbek va jahon adabiyoti" fani umumkasbiy fanlar blokiga kiritilgan bo'lib, 1,2,3-kurslarda o'qitiladi. Fanning boshqa fanlar, xususan, adabiyotshunoslik, folklor, psixologiya bilan uzviy bog'liqligi hamda bu kabi fanlardagi umumiy qonuniyatlar bilan aloqadorligi kuzatiladi.

II. O'quv fanining maqsadi va vazifasi

Fanni o'qitishdan maqsad – o'zbek va jahon adabiyoti bilan bog'liq boy adabiy va ilmiy meros bilan talabalarni tanishtirish, o'sib kelayotgan yosh avlodni sog'lom e'tiqod va yuksak axloq sohibi bo'lgan ajdodlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash, ular qoldirgan ma'naviy xazinani tom ma'noda qadrlashga o'rgatish orqali ularni yuksak ma'naviyatli va keng ma'rifat sohibi etib tarbiyalashdir. O'zbek va jahon adabiyotining shakllanish va rivojlanish qonuniyatlarini anglash orqali yoshlarda kuchli tafakkur tarzini shakllantirish, o'zbek va jahon adabiyoti tarixi haqida har tomonlama bilim hosil qilish, ma'naviy dunyosi mukammal bo'lishiga ko'maklashish ushbu o'quv fanining asosiy maqsadlaridan hisoblanadi.

Ushbu maqsadlarga erishish uchun "O'zbek va jahon adabiyoti" fani talabalarini nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, fanga doir muammolarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Fan bo'yicha talabalarining bilim, ko'nikma va malakalariga quyidagi talablar qo'yiladi. **Talaba:**

– milliy va jahon adabiyotining taraqqiyot bosqichlari, shoiru adiblar hayot yo'li va ijodiy faoliyati, ularning jahon xalqlari adabiy-estetik tafakkuri rivojiga qo'shgan hissasi haqida **bilimga** ega bo'lishi;

– o'zbek va jahon adabiyoti bilan bog'liq tushuncha va tamoyillar, adabiy tur va janrlar, badiiyat asoslari, ijodkor uslubi, poetik mahorat sirlari, badiiy ijodda an'ana va novatorlik masalalari, obrazlar, ramz va timsollar mohiyati, syujet va kompozitsiya, shakl va mazmun mutanosibligi, badiiy nasr stilistikasi, badiiy adabiyotda metod va metodologiya, badiiy asar tili, o'zbek va jahon adabiyotida yaratilgan nodir asarlarning o'ziga xos xususiyatlari, milliy va umuminsoniy qadriyatlar rivojida tutgan o'ri va ta'siri bilan bog'liq masalalarni **bilishi va amaliyotda ushbu bilimlardan foydalana olishi**;

– talaba o'zbek va jahon adabiyoti namoyandalarini o'rganish orqali ularni to'g'ri tahlil va talqin qila olish bilimi, malakasi va **ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak**.

III. Asosiy nazariy qism

1-modul. Eng qadimgi davrlardan XX asr boshlarigacha bo'lgan adabiyot

1-mavzu. O'zbek adabiyoti tarixini davrlashtirish printsiplari. Islomga qadar yaratilgan adabiyot (Qadimgi davrlardan VIII asrgacha)

Tarixiylik va adabiy-badiiy o'zgarishlar davrlashtirishning bosh mezon sifatida. O'zbek adabiyoti tarixini quyidagi tartibda davrlashtirish mumkinligi: Islomga qadar yaratilgan adabiy yodgorliklar (eng qadimgi davrlardan VIII asrgacha), islomiy ruhdagi didaktik adabiyot, XIII – XIV asrlardagi adabiyot (mo'g'ul istilosi davri, Oltin o'rda davri adabiyoti).

Qadimgi adabiy yodgorliklar. Turonzamin qadimgi madaniy markazlardan biri sifatida. Qadimgi davrlardan eramizning VIII asrigacha Markaziy Osiyoda yashagan xalqlar madaniyati. Eng qadimgi og'zaki adabiy yodgorliklar, ularning manbalari. Yunon tarixchilarining asarlarida Markaziy Osiyo asotirlariga oid ma'lumotlar.

"Avesto". "Avesto"ning o'rganilish tarixidan. Zardusht shaxsi haqidagi ma'lumotlar. "Avesto" adabiy manba sifatida. O'rxun-Enasoy toshbitiklari adabiy manba sifatida. O'rxun-Enasoy yodgorliklarining janr xususiyatlari. "Kultegin" va "To'nyuquq" bitiklari. Bitiklarda shaxs va millat erki. Irq bitigi adabiy manba

sifatida. Uyg'ur yozuvidagi yodgorliklar. Moniylik va buddaviylik ruhidagi adabiyot.

2-mavzu. Adabiy ta'sir va adabiy aloqalar. X - XII asrlardagi turkiy tildagi adabiyot

Qomusiy olimlar ijodi. Al Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino ilmiy-adabiy merosi. Mumtoz adabiyotning shakllanishi va tadrifi. Islomiy ruhdagi ma'rifiy-talimiy adabiyot. Turkiy tildagi adabiyot va fors-tojik adabiyoti. Nosir Xisrav, Umar Xayyom, Firdavsiy, Xoqoniy, Nizomiy, Sa'diy, Hofiz, Xusrav Dehlaviy va Jomiy kabi ijodkorlarning turkiy tildagi adabiyotga ta'siri. Ular asarlarining tarjimalari. Tarjima adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari.

Mahmud Koshg'ariy va uning "Devonu lug'otit-turk" asari. Asardagi afsona va xalq qo'shiqlar. Alp Erto'nga marsiyasi. Qadimgi afsona va qo'shiqlar poetikasi. "Devon u lug'otit-turk"da munozara janrining ilk ildizlari.

Yusuf Xos Hojib ijodi. Yusuf Xos Hojib hayoti va ijodining manbalari. "Qutadg'u bilig"da shoir hayotiga doir ma'lumotlar. "Qutadg'u bilig" ilk turk dostoni sifatida. Dostonda ijtimoiy-siyosiy va falsafiy masalalar. Dostonning janr xususiyatlari. Unda masnaviy, qasida, to'rtlik va g'azal unsurlari. Asarning ahamiyati.

Xoja Ahmad Yassaviy ijodi. Ahmad Yassaviy hayoti va ijodining manbalari. Manbalarda Yassaviy hayotining aks etganligi. Xoja Ahmad Yassaviy ilk turk mutasavvifi va orifona adabiyotning asoschisi sifatida.

Ahmad Yugnakiy ijodi. Ahmad Yugnakiy hayoti va ijodining manbalari. Adib hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. "Hibat ul-haqoyiq"da ijtimoiy, falsafiy va axloqiy masalalar. Asarda qo'llanilgan janrlar.

3-mavzu. XIII - XIV asrlardagi o'zbek adabiyoti

O'rta Osiyodagi ijtimoiy hayot, madaniy muhit. Xalq og'zaki ijodi va yozma adabiyot. Bu davrda yaratilgan asarlarning mavzu yo'nalishi, janr xususiyatlari.

Nosiriddin Rabg'uziy ijodi. Nosiriddin Rabg'uziy hayoti va ijodining manbalari. Adib ijodining o'rganilish tarixi. "Qisasi Rabg'uziy" ("Qisas ul-anbiyo") – o'zbek badiiy nasrining ilk namunasi sifatida. Asarning tarkibi va janr xususiyatlari. Asardagi she'riy parchalarning badiiyati: vazn, qofiya va she'riy san'atlar.

Pahlavon Mahmud hayoti va ijodi. Pahlavon Mahmudning hayoti va ijodiy merosi. Shoir ruboiylari. Ruboiylarning mavzular doirasi, timsollari, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Xorazmiy. Xorazmiy hayoti va ijodining manbalari. Xorazmiyning tarjimayi holini aniqlashtiruvchi ma'lumotlar. "Muhabbatnoma"ning nusxalari va tuzilishi. Asarda dunyoviy sevgining ulug'lanishi. Asardagi janrlar tizimi.

Qutb. Qutb hayoti va ijodining manbalari. Qutb va o'zbek tarjima adabiyoti. "Xisrav va Shirin" dostonining yaratilish tarixi, nusxalari. Nizomiy va Qutb:

an'anaviylik va ijodiy fardiyat (individuallik). Dostonning badiiy burkumolligi: she'riy san'atlar, vazn va qofiya.

Sayfi Saroyi ijodi. Sayfi Saroyi hayoti va ijodining manbalari. Saroyi hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Lirikasining janr xususiyatlari, mavzular ko'lami. "Gulistoni bi-t-turkiy" asarining tarkibi. Asardagi asosiy g'oya, ko'tarilgan masalalar. "Gulistoni bi-t-turkiy" va Sa'diy "Guliston"i. "Suhayl va Guldursun" dostoni. Uning tuzilishi va g'oyaviy mundarijasi. Badiiy xususiyatlari.

4-mavzu. Temuriylar davri adabiyoti

Tarixiy sharoit va madaniy muhit. Temur va temuriylar davrida o'tkazilgan madaniy islohotlar. Ilm-fan taraqqiyoti. Tarixnavislik. Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan asarlar.

Badiiy ijod sohasida turli yo'nalishlarning vujudga kelishi. Adabiy-estetik qarashlarning tadrijiy takomili. Adabiy tur va janrlar poetikasi. Janrlar xilma-xilligi. Devon tuzish an'anasi. Xamsanavislik. Memuar asarlar. Adabiyotshunoslikka oid asarlar. Ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan yirik shoir va adiblar ijodi.

Lutfly va Atoyil ijodi. Lutfly ijodi. Lutfly hayoti va ijodini o'rganish manbalari. Lutflyning ijodiy faoliyati. Lutfly va Navoiy. Lutfly lirikasi, janr xususiyatlari va mavzular ko'lami. Lutfly lirikasida ma'shuqa, zohid, raqib timsollar talqini. "Zafarnoma" dostoni Sharafiddin Ali Yazdiy "Zafarnoma"sining badiiy tarjimai alifboda. Dostonning g'oyaviy mundarijasi.

Atoyil hayoti va ijodining manbalari. Atoyil ijodiy merosini o'rganish manbalari. Atoyilning lirik merosi. Atoyil lirikasining janr xususiyatlari va badiiyati.

Nakkokly ijodi. Nakkokly hayoti va ijodining manbalari. SHoir hayoti va ijodining o'rganilish tarixi. Adabiy merosi. Sakkokiy "Devoni". Uning tuzilishi, qo'lyozma nusxalari. Nakkokly - qasidanavis.

Nisbat Durbekka nisbat berilgan "Yusuf va Zulayxo" dostoni. Dostonning yaratilishi, obrazlar tizimi, g'oyaviy-badiiy xususiyatlari.

Haydar Xorazmiy hayoti va ijodi. Haydar Xorazmiyning hayoti va ijodiy merosi. «Gulshun ul-asror» hamda «Gul va Navro'z» asarlari.

5-mavzu. Temuriylardan keyingi davr o'zbek adabiyoti

Tarixiy sharoit va madaniy muhit. Temur va temuriylar davrida o'tkazilgan madaniy islohotlar. Ilm-fan taraqqiyoti. Tarixnavislik. Temuriylar davri tarixiga bag'ishlangan asarlar. Badiiy ijod sohasida turli yo'nalishlarning vujudga kelishi. Adabiy-estetik qarashlarning tadrijiy takomili. Adabiy tur va janrlar poetikasi. Janrlar xilma-xilligi. Devon tuzish an'anasi. Xamsanavislik. Memuar asarlar. Adabiyotshunoslikka oid asarlar. Individual ijodiy uslub muammosi. Ushbu davrda faoliyat ko'rsatgan yirik shoir va adiblar ijodiga qisqacha tavsif.

6-mavzu. Bobur ijodiy merosi

Bobur hayoti va adabiy merosining o'rganilish tarixi. Shoir she'riyati, devonlari, badiiy mahorati. "Boburnoma", "Risolai aruz", "Volidiya" va "Mubayyin" asarlarining adabiy qimmati.

7-mavzu. Mashrab she'riyati

Mashrabning ijodiy merosi. Mashrabshunoslik tarixidan. Tazkiralardagi ma'lumotlar. «Qissayi Mashrab» asarining shoir dunyoqarashi va hayotini o'rganishdagi ahamiyati. She'riyati. Mashrab lirik merosining mavzu doirasi. Asarlarida qalandariylik tariqatining aks etishi. She'riyatida ilohiy ishq talqini. Timsollar olamining o'ziga xos jihatlari. "Mabdoi nur" va "Kimyo" asarlari, ularning muallifligi masalasi.

8-mavzu. Xonliklar davri o'zbek adabiyoti

Buxoro adabiy muhitining xos xususiyatlari. Adabiy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Xonliklar markazlarida adabiy muhitning shakllanishi va taraqqiyoti.

Tarixnavislik. O'tmish tarixnavisligi va uning davom ettirilishi. Xondamirning "Habib us-siyar" va "Siyar ul-muluk" asarlari. Tarixiy asarlarning yangilanish xususiyatlari.

Tazkiranavislik. Davr tazkiranavisligining o'ziga xos xususiyatlari. Hasanxoja Nisoriy "Muzakkiri ahbob" asarining ilmiy qimmati. Asarda XVI asr madaniy hayotini aks ettirish tamoyillari. Mutribiy, Maliho Samarqandiy, Qori Rahmatulloh Vozeh, Fazliy Namangoniy, Ahmad Tabibiy tazkiralari.

Shayboniyxon hayoti va ijodi. Shoir devoni va uning janr xususiyatlari. Asarlarining mavzu va g'oyaviy ko'lami. Shoir dunyoqarashi va tariqati. Shayboniyxon ijodida lirik qahramon tabiati. She'riy mahorat qirralari.

Xoja ijodi. Hayoti va ijodi. Hikoyalari. "Gulzor" va "Miftoh ul-adl" asarlarining talqini.

Xiva adabiy muhitidagi madaniy hayot. Adabiy muhit va uning o'ziga xos jihatlari. Zullisonaynlik va Navoiy an'analarining davom ettirilishi. Devon tuzish an'analarining takomillashtirilishi. Janrlar poetikasi. Tarixnavislik. Tarjima maktabining o'ziga xosligi, takomillashuv tamoyillari. Bayozchilik, tazkiranavislik va noshirlikning taraqqiy etishi.

Abulg'oz Bahodirxon hayoti va ijodiy merosi. Abulg'ozining ijtimoiy hayotdagi mavqei. Tarixiy asarlari. "Shajarayi tarokima" asari. Uning yozilish va o'rganilish tarixi. Asarning ilmiy-badiiy qimmati. «Shajarayi turk» asari qomusiy ma'lumotnoma ekanligi. Asarning o'zbek adabiyoti tarixidagi ilmiy-badiiy maqomi. Timsollar silsilasi. Adib mahorati masalasi.

"Manofe' ul-inson" asarining qo'lyozma nusxalari. Asarning yaratilish tarixi, sabablari. Asarning tuzilish xususiyatlari va ahamiyati.

Nishotiy hayoti va ijodi manbalari. Hayoti va adabiy merosi. She'riy devoni va bayozlar. Ularning qo'lyozmalari. Shoir she'riyatining mavzu va g'oyaviy qamrovi. Lirik qahramon tabiati. Asarlarining falsafiy asoslari. She'riy mahorati. «Qushlar munozarasi» asarida an'ana va yangilik. Ramziy timsollar talqini.

«Husnu Dil» dostonining timsollar olami va ramziylik. Shoirning she'riy mahorati qirralari.

Qo'qon xonligidagi madaniy hayot. O'rganilishi. Adabiy muhitning shakllanishi va o'ziga xos xususiyatlari. Amiriyning adabiy muhit asoschisi va rahnamosi sifatidagi maqomi. Janrlar poetikasi. Adabiy muhitda xalq og'zaki ijodiga munosabat masalasi. Tarixnavislik, she'riyat, nasr, matbaa ishlari, adabiy hamkorlikning noyob mahsullari yaratilishi.

Tazkiranavislikning yangi shakllari. Fazliy Namangoniy rahbarligida tuzilgan tazkira. «Majmuai shoiron»ning o'zbek adabiyoti tarixidagi o'rni. Tuzilishi va janrlar tarkibi. G'oziy ijodi. «Yusuf va Zulayxo» dostoni. Satirik va yumoristik asarlar. Maxmur adabiy merosi.

Xo'janazar Huvaydo hayoti va ijodi. Lirik merosi. Devonining tuzilishi va janr tarkibi. Shoirning dunyoqarashi va badiiy mahorati. «Rohati dil» dostoni. Asarning tuzilishi. Asar kompozitsiyasida hikoyatlarning o'rni. Timsollar olami. Huvaydoning dostonnavis sifatidagi mahorati.

Amiriy hayoti va ijodi manbalari. O'rganilish tarixi. Adabiy maktab asoschisi ekanligi. Tarjimai holi. Amiriy devoni. Devon qo'lyozmalari. Asarlarining ko'lami va janr xususiyatlari. Devonda debochani o'rni. She'rlarining mavzu doirasi va g'oyaviy qamrovi. An'ana va yangilik. Timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Badiiy mahorati.

9-mavzu. XVII asrdan XIX asrning oxirigacha bo'lgan davr adabiyoti

Gulxaniy hayoti va ijodi. O'rganilish tarixi. She'riy merosi. Janrlar tarkibi. Mavzu ko'lami. Timsollar mohiyati. «Zarbulmasal» asari. Asar tarkibi va majoziy tabiati. Badiiy xususiyatlari. Gulxaniyning «Zarbulmasal»da timsol yaratish mahorati. Badiiy san'atlarning qo'llanish tamoyillari.

Uvaysiy hayoti va ijodi. O'rganilish tarixi. Adabiy merosi. She'riyatining mavzu va g'oyaviy ko'lami. Shoira ijodida ishq talqini. Ijtimoiy hayotga munosabati. Asarlarining timsollar olami. Lirik qahramon tabiati. Uvaysiylik bilan munosabat masalasi. Badiiy san'atlarni qo'llash mahorati. «Shahzoda Hasan» va «Shahzoda Husayn» dostonlari. Dostonlarning syujet va kompozitsiya jihatdan o'ziga xosligi. Shoiraning dostonnavislik mahorati.

«Voqeoti Muhammadalixon» (tugallanmagan) asari. Asarning tarixiy ahamiyati. Timsollar ko'lami.

Mohlaroyim Nodira hayoti va ijodi. Shoiraning davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Nodira va Umarxon munosabatlari. Nodira ijodiga Uvaysiyning adabiy ta'siri. Nodiraning she'riy merosi. Devondagi g'azal, muxammas, ruboiy, fard kabi janrlar tabiati. Nodira she'riyatining mavzu qamrovi. Ishq va sadoqat, visol va hijron tarannumi. Lirik qahramon tabiatining rang-barangligi. She'riyatining timsollar ko'lami. Badiiy san'atlarni qo'llash mahorati.

Muhammad Alixon (Xon) ijodi. Davlat arbobi sifatidagi faoliyati. Tarjimai holi. Muhammad Alixon ijodida Navoiy va Fuzuliy an'analari. Fuzuliy

g'azallariga tazmin va taxmislar. Devonining janriy tarkibi. She'riy mahorat qirralari.

10-mavzu. Milliy uyg'onish davri o'zbek adabiyoti

Milliy uyg'onish davrining o'zbek adabiyotining ikki bosqichi: birinchi bosqich – "Ilk mustamlakachilik davri adabiyoti" 1865-1905-yillarni o'z ichiga oladi. Ikkinchi bosqich – "Ijtimoiy-siyosiy va mafkuraviy kurashlar davri" 1905-1929 yillar.

"Ilk mustamlakachilik davri"ning dahshatli voqevalarga to'la kartinasi tarixiy-badiiy asarlarda o'z ifodasini topdi. Chor Rossiyasi tomonidan xonliklarning, markaziy shaharlarning bosib olinishi, mustamlaka zulmining kuchayishi, ma'naviy hayotning porakandalikka yuz tutishi, xalq ozodlik harakatlari bu davr adabiyotiga alohida mavzu sifatida kirib keldi. Bu, o'z navbatida, adabiy janrlar va vaznlarning yangilanishiga ham asos bo'ldi. Yangicha yo'nalishdagi hajvchilik maydonga keldi: she'riy manzumalar, sayohatnomalar, maktubotlar turkumi yaratildi. Toshkent va boshqa markaziy shaharlarda bosmaxonalarning vujudga kelishi, matbuotning yo'lga qo'yilishi, o'qitish tizimidagi yangiliklar mustamlaka o'lkada yangicha ma'rifatparvarlikning shakllanishi va yuksalishiga asos bo'ldi. Tarjimachilik rivoj topdi: sharq adabiyotidan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Guliston" asarlari tarjimai bilan barobar rus va yevropa adabiyotidan tarjimalar qilindi.

11-mavzu. XX asrning 20-yillari matbuoti va adabiyoti.

"Usuli jadid" maktablari. Bu maktablar uchun tuzilgan darslik va o'quv qo'llanmalar. Gasprinskiy va Turkiston jadidchiligi. Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Sirojiddin Sidqiy, Tavallo, So'fizoda hayoti va ijodi.

O'zbek romanchilik maktabi. Milliy dramaturgiya. Teatr va adabiy tanqidchilik. Sho'rolar tomonidan adabiyotni mafkuraviy kurashlar vositasiga aylantirish siyosati. Abdurauf Fitrat, Hamza, Cho'lpon, Qodiriy ijodiy faoliyati.

2-modul. Yangi davr o'zbek adabiyoti

1-mavzu. Yangi o'zbek adabiyoti. Bu adabiyotning asosiy xususiyatlari

Yangi o'zbek adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari, yetakchi belgilari. Yangi o'zbek adabiyotini davrlashtirish. Yangi o'zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Yangi o'zbek adabiyotining realizm bosqishi (1916-1932 yillar). Birinchi bosqichi (1932-1954 yillar). Ikkinchi bosqichi (1954-1991 yillar). Milliy istiqloq davri o'zbek adabiyoti. XX asr adabiyoti tarixiga oid bahs-munozaralar. Sho'ro davri adabiyotining 1991 yilgacha davom etganligi. Mustaqillik yillari adabiyotida badiiylik masalalariga e'tibor ortganligi.

2-mavzu. XX asrning 20-50 - yillari adabiyoti

Sho'ro adabiyotining vujudga kelishi. Adabiyotda hokim mafkura g'oyalarning yetakchilik qila boshlashi. Adabiy jarayon ikki yo'nalish - chinakam

badiiyatga daxldor bo'lgan adabiy yo'nalish va sho'ro g'oyalarini ilgari suruvchi adabiy yo'nalishning vujudga kelishi. 20-30-yillar adabiyotida zamonasozlik, shaxsga sig'inish illatlarining namoyon bo'lish sabab va oqibatlari. Bu davrda badiiy mukammal asarlarda davr va shaxs fojiasining o'ziga xos tarzda namoyon bo'lishi. Adabiyotda yangi janrlarning takomillashuvi. Ikkinchi jahon urushi davri adabiyotida yuksak vatanparvarlik motivlarining yetakchilik qilishi. Bu davr dramaturgiyasida tarixiy mavzu va xalq qahramonlari obrazini yaratishga e'tiborning kuchayishi.

Urushdan keyingi davr adabiyotida "konfliktsizlik nazariyasi" illatlarining yetkazgan zararli oqibatlari. Adabiyotda soxta konflikt va optimistik ruhning ustuvorlik qilishi. Mafkuraviy tuzum va qatag'onlik siyosatining yangicha ko'rinishlari. Madaniy meros, xususan, "Alpomish" dostoniga noxolis munosabat.

3-mavzu. G'afur G'ulom va Oybek ijodi

G'afur G'ulom o'zbek adabiyotining yetuk namoyandalaridan biri sifatida. Tarjimai holi va adabiy merosi haqida ma'lumot. G'ulomning 20-30- yillardagi ijodi. G'afur G'ulom hikoyalarda satira va yumor. Adibning publitsistik qarashlari. G'afur G'ulom qissalari. "Shum bola" - yumoristik asar. G'afur G'ulom qissalarida davr va shaxs fojiasi. G'.G'ulom she'riyatida falsafiy teranlik va badiiy mukammallik. Mustaqillik yillarida G'.G'ulom ijodiga yangicha munosabat.

Oybek lirikasining g'oyaviy-badiiy xususiyatlari. Oybek dostonlari ijtimoiy hodisalarning badiiy talqini. Oybek - romannavis. "Qutlug' qon" romanida davr va shaxs fojiasi. "Navoiy" tarixiy romanida ulug' alloma obrazi.

4-mavzu. Hamid Olimjon va Zulfiya ijodi

H.Olimjon - baxt va shodlik kuychisi. X.Olimjon - tarjimon, adabiyotshunos. Hamid Olimjonning ertak va dostonlari. Hamid Olimjon ijodida xalq og'zaki ijodining o'rni. Shoir lirikasida tabiat tasviri. Zulfiya she'riyatida hijron va sadoqat motivi. Baxt va sevgi, g'am-hijron shoira lirikasining qo'sh qanoti sifatida. "Xotiram siniqlari" poemasi.

5-mavzu. Odil Yoqubov hayoti va ijodi

O.Yoqubov asarlarida ma'naviyat masalasi - bosh pafos sifatida. O.Yoqubov romanchiligi. Tarixiy romanlarda hayot haqiqati va badiiy to'qima. Adibning istiqloq davri ijodida ruhiyat manzaralarining kashf etilishi. "Alvido, Moriko" qissasi.

6-mavzu. Pirimqul Qodirov hayoti va ijodi

P.Qodirov qissalarida shaxs va ma'naviyat masalalarining yoritilishi. P.Qodirov mahoratli romannavis. Bobur hayoti va faoliyatini o'rganishda adib ijodining tutgan o'rni. "Ona loshin vidosi" romanida temuriylar qismatining yangicha talqinlari. P.Qodirov - adabiyotshunos olim va munaqqid.

7-mavzu. Erkin Vohidov va Abdulla Oripov ijodi

E.Vohidov she'riyatida an'ana va novatorlik «Yoshlik» devoni va zamonaviy g'azalchilik muammolari. SHoir dostonlarida shaxs erki va ma'naviyat-ma'rifat masalalarining yoritilishi. E.Vohidovning istiqloq yillaridagi ijodi.

A.Oripov she'riyatida badiiy mukammallik va falsafiy teranlik. A.Oripov - tarjimon. A.Oripovning istiqloq yillaridagi ijodi. SHoir dramatik dostonlarida ma'naviyat masalasining badiiy talqini. "Haj daftari" turkumiga kiruvchi she'rlarida islomiy-axloqiy masalalarining yoritilishi.

3-modul. Jahon adabiyoti

1-mavzu. Kirish. "Jahon adabiyoti" fanining predmeti va mazmuni

"Jahon adabiyoti" fanining nomlanishi, obyekt, geografik miqyosi, davrlashtirilishi. Fanning maqsad va vazifalari. Jahon adabiyotining antik davri: Shumer, Misr, Hind, Xitoy, Yunon, Rim va Turkiy tillar adabiyoti. Ularning o'zaro mushtarak va farqli jihatlari. Jahon adabiyoti manbalariga tipologik, genetik, tarixiy-madaniy yondashuv.

2-mavzu. Mif va badiiy ijod

Mif va jahon adabiyoti. Mifning jahon adabiyoti tadrijidagi o'rni. Mifologiya va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishda adabiy-nazariy, falsafiy-estetik asos sifatida. Mifologik maktab: tarixi, vakillari. Aka-uka Grimmlarning "Nemis mifologiyasi" asari. Myuller asarlarida mifologik talqin. Losevning mifologiyaga doir qarashlari. Mif va falsafa, mif va estetika, mif va din. Mif va mif poetikasi jahon adabiyotini o'rganishning muhim asosi sifatida. Mifda kaos va kosmos tushunchalari, ularning badiiy adabiyot tarkibida bajaradigan vazifasi. Mifning shakllari: tabiat, jamiyat, inson, o'tmish, kelajak, yaratilishi va inqiroz haqidagi miflar. Frezer talqinida mif.

3-mavzu. Qadimgi Sharq adabiyoti

Hududiy va milliy tarkibi: Shumer - Bobil adabiyoti, Misr adabiyoti, Eron adabiyoti, Hind adabiyoti, Xitoy adabiyoti, Markaziy Osiyo adabiyoti. Mifologiyasi, adabiy namunalari, qadimgi Sharq xalqlari adabiyotining jahon adabiyotiga ta'siri masalasi. Shumer adabiyoti jahon adabiyotining ibtidosi sifatida. Shumer adabiyoti yodgorliklarining ko'lami va janrlari. "Gilgamish haqida doston" eposi. Gilgamish - abadiy hayot izlovchi epik qahramon. "Avesto" - Markaziy Osiyo xalqlarining mushtarak yodgorligi.

4-mavzu. Antik davr yunon adabiyoti

Qadimgi Sharq adabiyotining antik adabiyot bilan mushtarak jihatlari: mifologiyadagi va eposdagi mushtaraklik. Homerning "Iliada" va "Odessiya" dostonlari. Dostonlarning mavzusi, tarixiyligi va mifologik elementlari. Axill va Odissey obrazlarida aks etgan Gomerning axloqiy-estetik qarashlari, "Odessiya" va "Alpomish". Gesiodning "Mehnat va kunlar" didaktik asari. Gesiod va Sharq

didaktikasi. Yunon lirikasi. Monodik va tantanali lirika. Elegiya va Yamb. Yunon lirikasida vazn.

5-mavzu. Qadimgi Rim adabiyoti

Rim adabiyotining asosiy taraqqiyot bosqichlari va yo'nalishlari. Dastlabki Rim shoirlari. Rim adabiyotida tarixshunoslik. Rim adabiyotining "oltin davri". Vergiliyning "Eneida" dostoni. "Bukolikalar" va "Georgikalar". Rim poeziyasining o'ziga xosliklari. Goratsiy ijodi. Goratsiy "Epodlar"i, "Satiralar"i va "Nomalar"i. Rim elegiyasi va Ovidiy ijodi, Ovidiyning "Metamorfozalar" asari, Imperiya davri Rim adabiyoti, Rim adabiyoti va keyingi davr Yevropa adabiyoti.

6-mavzu. Tarixiy va falsafiy proza

Gerodotning "Tarix" asarida voqelikka real yondashuv. Uning o'z davrida yaratilgan boshqa tarixiy asarlardan farqi. Palatonning "Qonunlar" kitobida dialogning o'rni. "Davlat" asarida jamiyatni toifalash masalalari. Platon asarlarida "Yalag'och daho" obrazi va uning prototipi. Platonning ideal haqidagi tushunchalari. Aristotelning "Metafizika", "Poetika" asari.

7-mavzu. O'rta asrlar Sharq va G'arb adabiyoti

Firdavsiy "Shohnomasi". Nizomiy ijodi. "Xamsa"chilik an'anasi"ning boshlanishi. Umar Xayyom ruboiylari. Rudakiy g'azaliyoti. Jaloliddin Rumi "Mas'naviy"si. Hofiz Sheroziy, Abduraxmon Jomiy, Sa'diy Sheroziy, Xusrav Dehlaviy ijodi.

Sharq va G'arb qahramonlik eposlarining mushtarak jihatlari. Fransuz, ispan, nemis qahramonlik eposlari. XII – XIII asrlarda ritsarlik – kurtuaz adabiyoti. Ritsarlik adabiyotining o'ziga xosliklari va shakllari. Ritsarlik adabiyotida sharqona javonmardlik va axiylik masalalari. O'rta asrlarda shahar adabiyoti va uning janrlari.

8-mavzu. Jahon adabiyoti va Alisher Navoiy

Alisher Navoiyning turkiy til uchun kurashi. "Muhokamat-ul lug'atayn". Turkiyadagi ilk "Xamsa". "Xazoyin-ul maoniy".

Alisher Navoiy asarlarining xorijiy tillarga tarjimasi, uning olimlik faoliyati. Jahon adabiyotining Alisher Navoiyga ehtiromi.

9-mavzu. Jahon adabiyotida Uyg'onish davri adabiyoti masalasi

Uyg'onish adabiyotining alomatlari va o'ziga xosliklari. Sharq Uyg'onishi va uning belgilari. Jahon madaniyati Uyg'onishining tadriji. Sharq Uyg'onishi va uning ahamiyati. Uyg'onish davri Sharq va G'arb adabiyotining madaniy aloqalari.

10-mavzu. Italiya va Ispaniyada Uyg'onish adabiyoti

Yevropa Uyg'onish davri adabiyotining davrlari, omillari va o'ziga xosliklari. Italiya uyg'onishi. Italiya Uyg'onish davri adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Dante ijodi. Dante – O'rta asrlarning oxirgi va Uyg'onish davrining ilk

shoiri. Dante va Sharq madaniyati. Petrarka lirikasi. J.Bokkacho va Italiya uyg'onishida nasr, "Dekameron" va "Ming bir kecha".

11-mavzu. Fransiyada Uyg'onish davri adabiyoti

Fransua Rable biografiyasi va ijodi. "Gargantuya va Pantagryuel" asari. Asar xususida M.Baxtin tadqiqotlari. Roman talqinida xalq kulgu madaniyatining o'rni. Asarda kinoya va komillik.

12-mavzu. Angliya Uyg'onish davri adabiyoti

Ijtimoiy, falsafiy va estetik qarashlardagi yanglanishlar. Uyg'onish davri ingliz lirikasi, eposi va dramasi. Adabiy muhit. K.Marlo ijodi. Dramaturgiya va teatrchilik. Globus teatri. Vilyam Shekspiring hayot yo'li. Shekspir ijodida lirika. Sonetlari. Dramaturgiyasi.

13-mavzu. Klassitsizm adabiyoti (XVII asr G'arbiy Yevropa adabiyoti)

Klassitsizm adabiyotining taraqqiyot bosqichlari. Klassitsizm adabiyotining o'ziga xosligi. Klassitsizm adabiyotining nazariy asosi va janrlari. Fransuz klassitsizmi va uning vakillari. Angliya va Ispaniyada klassitsizm. Klassitsizm adabiyotining ahamiyati.

14-mavzu. Ma'rifatchilik adabiyoti

Ma'rifatchilik adabiyotining klassik ma'rifatchilikdan farqi va o'ziga xosligi. Angliya ma'rifatchiligi. Ingliz ma'rifatchilik adabiyotining yo'nalishlari, vakillari va janrlari. Fransuz ma'rifatchilik harakatining o'ziga xosligi. F.Volter, D.Didro va J.J.Russo ijodida ma'rifatparvarlik g'oyalari. Nemis ma'rifatchilik adabiyoti. G.E.Lessing, F.Shiller va I.V.Gyote ijodida ma'rifat masalasi.

G'arb va Sharq ma'rifatchiligining mushtarak va farqli jihatlari. Sharq musulmon ma'rifatchiligida mustamlakachilik, milliy parokandalik va ma'rifiy mahdudlik masalasi. Ma'rifatchilik adabiyotining ahamiyati.

15-mavzu. Romantizm adabiyoti

Romantizmning nazariy asoslari va o'ziga xosliklari, Nemis adabiyotida romantizmning manbalari va shakllari. Aka-uka Grimmilar va Gofman ijodi. Ingliz romantizmida Bayron va Shellining tutgan o'rni. Bayron ijodida shaxs erki va xalq ozodligi masalasi. Fransuz adabiyotida V.Gyugo va J.Sand ijodi. V.Gyugo asarlarida milliy ozodlik mavzui. Amerika romantizm adabiyoti. F.Kuper tarixiy roman asoschisi. Romantizmning tarixiy asoslarda aks etishi. Romantizmning jahon adabiyotidagi o'rni.

16-mavzu. Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti

Realizm estetikasi. Realizm va tanqidiy realizmning farqli jihatlari. Adabiyotda tanqidiy realizmning paydo bo'lish omillari. Fransuz adabiyotida tanqidiy realizm. F.Stendalning "Qizil va qora" va "Parma ibodatxonasi" romanlari. Balzak ijodi. "Gorio ota", "Gobsek", "Evgeniya Grande" asarlari.

P. Merime novellalarida real voqelikka tanqidiy munosabatni ifodalash. G. Floberning "Bovari xonim" romanida romantizm adabiyotiga munosabat. CH. Dikkens va U. Tekkery ijodi. Nemis tanqidiy realizm adabiyotining o'ziga xosligi. G. Gejne ijodida realizm va tanqidiy realizmning uyg'unligi.

17-mavzu. XIX asr oxiri va XX asr jahon adabiyoti

